













Nogironligi bor 18 yoshgacha bolalar va nogironligi bor insonlarga to‘lanadigan nafaqalar

	Bu maqolada nogironligi bor 18 yoshgacha bolalar va nogironligi bor insonlarga to‘lanadigan nafaqalar haqida ma’lumot beriladi.
	Nafaqa – bu nogironligi bor insonlar yoki keksalar uchun davlat tomonidan har oy beriladigan pul.
	**Nafaqa beriladigan insonlar:** • 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolalar • 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolaga qaraydigan inson • nogiron farzandi bor onalar • nafaqa olmaydigan qariyalar.
	Hozirda 1 oy uchun nafaqa puli 800 (sakkiz yuz) ming so‘m.
	**Nogironligi bor bola –** bu qonunda yozilgan kasalliklar bilan nogironlik belgilangan 18 yoshgacha bo‘lgan bola.

	Nogironlikni **(TIEK) ya’ni –** Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyalari tayinlaydi.
	18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolalarda nogironlik guruhi ko‘rsatilmasdan, nogironligi bor bola deyiladi.
	Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko‘ra, nogironligi bor bolaga qaraydigan inson nafaqa olish huquqiga ega.
	Shifokorlar guruhi nogironligi bor bola va uning qonuniy vakili ma’lumotlarini 5 daqiqada yashash joyidagi nafaqa beradigan markazga yuboradi.
	**Vakil –** bu nogironligi bor bolani parvarish qiluvchi inson. U bolaning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.
	Sog‘liqni saqlash vazirligi OIV kasalligi bor 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nafaqa berish uchun uning qarovchisi ma’lumotlarini 5 daqiqada yashash joyidagi nafaqa beradigan markazga kompyuterdan yuboradi.

	**Sog‘liqni saqlash vazirligi –** bu sog‘liqni saqlash bo‘yicha eng katta davlat tashkiloti.
	**OIV (odamning immunitet tanqisligi virusi) kasalligi –** bu qondabo‘ladigan kasallik turi.
	Nogironligi bor bola va uning **vakili** ma’lumotlari Vazirlar Mahkamasi qaroridagi talablarga ko‘ra yaratiladi.
	Ma’lumotlar nafaqa beradigan markazga kelganidan keyin nogironligi bor bola va uning qonuniy vakilining qarindoshligi tekshiriladi.
	Nafaqa beradigan markaz tekshirish uchun ma’lumotlarni: • Adliya vazirligi • Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligiga yuboradi.
	Vazirliklar ma’lumotlarni 5 daqiqada o‘rganib, nogironligi bor bolaning **qonuniy vakili** yoki **vakili emasligi** haqida markazga javob yuboradi.

	Vazirliklar 18 yoshgacha nogironligi bor bola vakilining qonuniyligini tasdiqlamasa **nafaqa berilmaydi.** Boshqa holatlarda nafaqa beriladi.
	Nogironligi bor bolaga nafaqa berish yoki nafaqa bermaslik haqida 5 daqiqada ma’lumotnomada yozilgan telefon raqamga SMS xabar keladi.
	Ish staji bo‘lmagan insonlar ham bemor bo‘lib qolgan vaqtdan boshlab necha yoshda bo‘lsa ham, birinchi va ikkinchi guruh nogironlik nafaqasini olishi mumkin.
	**Shartnoma** – bu ishchi va rahbar o‘rtasidagi kelishuv hujjati.
	Nogironligi bor insonga nogironlik nafaqasini tayinlashda davlat xizmatlari markazi ham yordam beradi.
	Nogironligi bor inson davlat xizmatlari markaziga keladi va nafaqa tayinlanishi uchun hujjatni to‘ldiradi.

	Davlat xizmatlari markazi manzillari va boshqa ma’lumotlarni 1242 telefon raqami orqali olish mumkin.
	Davlat xizmatlari markazi nogironligi bor insonning arizasini ko‘rib chiquvchi tashkilotga yuboradi.
	Tashkilot ma’lumotlarni 5 daqiqada o‘rganib chiqadi.
	Shu vaqtning o‘zida nogironligi bor insonga nafaqani qachon, qayerdan olish haqida xabar yuboriladi.
	Agar nogironligi bor insonga nafaqa berilmasa, nafaqa bermaslik va uning sababi haqida xabar yuboriladi.
	Nogironlik nafaqasini belgilashda davlat xizmatini ko‘rsatish tartibi haqida 2023-yil 23-martdagi 119-son qarorining 7- ilovasidan bilib olishingiz mumkin.